

“MAQOMOT VA DOIRA: JO‘RNAVOZLIK SAN’ATINING SIRLARI”



Samadov Rahmatilla Sunnatullayevich

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrası faxriy professori
rakhmatillaS@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqom ijrochiligida jo‘rnamoslik (konsertmeysterlik) san’atining o‘rni doira cholg‘usi misolida tahlil qilinadi. Doiraning tarixiy kelib chiqishi, uning maqom ansambllaridagi funksiyasi, solist va jo‘rnamos o‘rtasidagi ijrochilik uyg‘unligi, ritmik usullarni ovozda qo‘llash (ufor usuli), qochirim va nolish kabi ijro vositalarining badiiy-estetik ahamiyati yoritiladi. Maqolada jo‘rnamoslikning vokal va ansambl ijrosidagi roli, ritmni boshqarish, dinamika, ansambl madaniyati va ijodiy talqin kabi jihatlar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maqom, jo‘rnamoslik, doira, konsertmeyster, ritm, ufor usuli, nolish, qochirim, ansambl, vokal ijro, estetik ifoda, uslub.

Аннотация В данной статье рассматривается роль концертмейстерского искусства в исполнении макома на примере ударного инструмента — дойры. Анализируется историческое происхождение дойры, её функции в макомном ансамбле, особенности взаимодействия солиста и концертмейстера, применение ритмических формул (например, уфор), а также выразительных приёмов, таких как «нолиш» и «кочирим». Особое внимание уделяется значению концертмейстерского мастерства в обеспечении ансамблевой согласованности, управлении ритмом, динамикой и художественной выразительностью вокала.

Ключевые слова: маком, концертмейстер, дойра, ритм, уфор, нолиш, кочирим, ансамбль, вокальное исполнение, художественная выразительность, традиционная музыка.

Abstract: This article examines the role of concertmaster (co-accompanist) artistry in maqom performance, using the doira percussion instrument as an example. It explores the historical origins of the doira, its function within maqom ensembles, and the collaborative interaction between the soloist and the accompanist. The study highlights the use of rhythmic vocal exercises (such as the *ufor* pattern), as well as expressive techniques like *nolish* and *qochirim*. Special emphasis is placed on the concertmaster’s contribution to ensemble coherence, rhythmic control, dynamics, and the aesthetic depth of vocal performance.

Keywords: maqom, concertmaster, doira, rhythm, ufor pattern, nolish, qochirim, ensemble, vocal performance, artistic expression, traditional music.

Kirish. O‘zbek musiqa san’ati asosan maqom an’analari bilan ajralib turadi. Maqom ijrochiligida nafaqat yakkaxon ijrochining mahorati, balki jo‘rnamosning, ya’ni konsertmeysterning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, maqom yo‘llarini ijro etishda doira cholg‘usining jo‘rnamoslikdagi o‘rni alohida ahamiyatga ega. Jo‘rnamos faqat ritmik hamroh emas, balki ijrochining kayfiyatini, ijro usulini va asar obrazini to‘liq ochib beruvchi hamkor sifatida xizmat qiladi.

Joʻrnavezlik sanʼati koʻp qirrali boʻlib, musiqa ijrochiligining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Joʻrnavez nafaqat ijrochilik mahoratini namoyish etadi, balki pedagogik vazifalarni ham bajarishi lozim: talabaga asarlarni oʻzlashtirishda yordam berish, ansambl vazifalarini tushuntira olish va ansambl ijro jarayonida ham etakchi boʻla olish.

Doyra – urib chalinadigan cholgʻu boʻlib, dastlab *Duf, Daf, Childirma, Chirmanda* kabi nomlar bilan atalgan. U oʻzbek musiqa sanʼatida, ayniqsa raqs janrlarida, zamonaviy professional va havaskor orkestrlarda hamda maqom ansambllarida mustahkam oʻrin egallagan.

Doyra cholgʻusining kelib chiqishi bilan bogʻliq koʻplab rivoyatlar mavjud. Arxeologik va ilmiy tadqiqotlarga koʻra, u taxminan 2000 yil avval paydo boʻlgan. XVII asrda yashab ijod qilgan buxorolik musiqachi Darvish Ali Changiyning kitoblarida doyra haqida rivoyat berilgan:

“Choʻli malik”da ketayotgan karvondan bir yigit adashib qoladi. Yigitning na ovqatga, na ichishga suvi qoladi. Xoldan tolga yigit uzoqda ketayotgan karvonga koʻzi tushadi. Yigit baqiradi, ishora qiladi, lekin hech kim eshitmaydi. Shunda u suvdan boʻshagan meshni atrofdagi taxtalarga tortib uradi va *gum-gum* degan ovoz chiqadi. Uzoqda ketayotgan karvon bu ovozni eshitib yordamga keladi va yigit oʻlimdan qutuladi.”

Ushbu rivoyat doyra cholgʻusining nafaqat musiqa asbobi, balki inson hayotida aloqa va signal vositasi sifatida qadrlanganligini koʻrsatadi.

Joʻrnavez – bu ijrochilikning koʻp qirrali ustasi. U bir vaqtning oʻzida bir nechta obyektga tinglash va vizual eʼtiborini taqsimlay olishi, solist, xor jamoasi yoki ansambllar bilan uygʻun ishlay olishi kerak. Joʻrnavez quyidagi vazifalarni bajaradi:

Yakkaxon va ansambl bilan musiqiy aloqa oʻrnatish;

Xonandalik va cholgʻu ijroni tushunish va yoʻnaltirish;

Ansambl ijrosining nozik jihatlari nazorat qilish;

Joʻrnaveznining ijrochilik eshituvlari uning bir vaqtning oʻzida koʻrish, eshitish va vizual eʼtiborini bir necha obyektga boʻla olishi orqali namoyon boʻladi.

Adabiyotlar tahlili. Joʻrnavezlikka oid bilim va koʻnikmalar, shuningdek, professional madaniyatning muhim tarkibiy qismi boʻlib, joʻrnaveznining faoliyati asosan amaliyotga asoslanadi. Joʻrnavez ishining doirasi keng boʻlib, u maktablarda dars jarayonida ansambl jamoasiga joʻr boʻlish, oʻquvchilarga musiqiy tinglash darslari uchun turli asarlarni ijro etib koʻrsatish va bolalar uchun zamonaviy musiqiy asarlar bilan mustaqil tanishtirish kabi faoliyatlarni oʻz ichiga oladi. Shuningdek, joʻrnavez talaba bilan individual ishlashi, vokal yoki raqs ansambliga joʻr boʻlishi mumkin.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, joʻrnavezlik sanʼati azaldan mavjud boʻlib, ustozlarning tajriba va bilimlari keyingi avlodlarga etkazib kelinib, musiqa taʼlimi va ijrochiligida muhim oʻrin egallab kelmoqda. Shu bois, zamonaviy musiqiy taʼlim jarayonida joʻrnaveznining roli va faoliyati ilmiy jihatdan oʻrganishga arziydi.

Bugungi kunda musiqiy taʼlim jarayonida joʻrnaveznining malakasi va tajribasi oʻquv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Joʻrnavezlik faoliyati nafaqat ijrochilik va pedagogik jihatlarni oʻz ichiga oladi, balki talabalarning musiqiy didi, ijodiy fikrlash va ansamblidagi hamkorlik koʻnikmalarini shakllantirishda ham asosiy rol oʻynaydi. Shu sababli joʻrnaveznining malakasini oshirish, uning amaliyotdagi metodik yondashuvlarini tahlil qilish va yangilash dolzarb ilmiy masala sifatida qaraladi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotning maqsadi – joʻrnavezlik sanʼatining zamonaviy taʼlim jarayonidagi rolini aniqlash, uning pedagogik va ijrochilik funksiyalarini tizimli oʻrganish va professional musiqiy faoliyatga taʼsirini baholashdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilar: joʻrnavezlik ishining amaliy doirasini tahlil qilish, oʻquv jarayonida qoʻllaniladigan

metodik vositalarni aniqlash va joʻrnavezlik koʻnikmalarini shakllantirishning samarali yoʻllarini belgilash.

Ustozlardan Doyra cholgʻusining ijrochiligini poydevorini qurgan mohir ijrochi **Oʻzbekiston xalq artisti**, koʻplab davlat mukofoti sovrindori **Usta Olim Komilov**dir. Uning shogirdlari – **Toʻychi Inogʻomov, Gʻofur Azimov, Mamatqul Mullajonov, Raxim Isaxoʻjayev, Gʻofur Sottixoʻjayev, Gʻofur Inogʻomov, Dadaxoʻja Sottixoʻjayev, Qaxramon Dadayev, Ravshan Akbarbekov** va boshqalar – ustozning ijrochilik va pedagogik tajribasini davom ettirib, zamonaviy musiqa taʼlimida faoliyat olib bormoqdalar.

Usta Olim Komilov ijrochiligi va pedagogik faoliyati Doyra cholgʻusining texnika va ifoda imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqqan boʻlib, uning shogirdlari oʻz navbatida anʼanaviy uslublarni saqlab qolish bilan birga, ijrochilikning zamonaviy yondashuvlarini ham rivojlantirmoqdalar. Bu esa joʻrnavezlik sanʼatining nafaqat ijrochilik, balki pedagogik jihatdan ham boy va keng qamrovli ekanligini koʻrsatadi.

Shogirdlarning faoliyati, amaliy darslarda va ansambl ijrosida ishtiroki orqali musiqiy taʼlim jarayonida joʻrnavezning roli yanada yaqqol namoyon boʻladi. Ularning ijrochilik va pedagogik yondashuvlari talabalarni musiqiy did, ritmiy sezgi va ansamblidagi hamkorlik koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Shu sababli, ustoz-shogird anʼanasi nafaqat mahoratni, balki professional madaniyatni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Munozara. Bugungi kunda, Usta Olim Komilov maktabi asosida shakllangan ijrochilik maktabi va uning shogirdlari joʻrnavezlik sanʼati rivojining dolzarb namunasi sifatida qaraladi. Tadqiqotda ustoz va shogirdlarning ijrochilik va pedagogik yondashuvlari oʻrganilishi orqali joʻrnavezlik sanʼatining zamonaviy taʼlimdagi oʻrni va ahamiyati ilmiy jihatdan aniqlanishi mumkin.

Joʻrnavezlik sanʼati nafaqat yakkaxon ijrochilikni, balki bir vaqtning oʻzida bir nechta musiqiy jarayonlarni boshqarish va kuzatish qobiliyatini talab qiladi. Joʻrnavez bir vaqtning oʻzida **tinglash va koʻrish eʼtiborini** bir nechta obyektlar – xorga, solistga yoki musiqa darsidagi oʻquvchilarga taqsimlashi lozim. Shu sababli, tadqiqot metodikasi asosida joʻrnavezning professional sifatlarini tizimli ravishda oʻrganishga eʼtibor qaratildi.

Maqom ijrochiligida konsertmeyster, yaʼni joʻrnavos, nafaqat ritmik hamroh sifatida, balki solistning ijodiy ifodasini qoʻllab-quvvatlovchi hamkordir. Shu nuqtai nazardan, qochirim va nolish qilish vositalaridan foydalana olish masalasiga alohida eʼtibor berish zarur. Bu nafaqat xonandaning texnik mahoratini, balki ijroning badiiy-estetik taʼsirini kuchaytiradi. Joʻrnavos qochirim va nolishni toʻgʻri va oʻz vaqtida ijro etganda, solistning kayfiyati, maqom yoʻllarining ichki intonatsiyasi va ansamblning umumiy uygʻunligi yanada aniqroq namoyon boʻladi. Masalan, maqomning nozik frazalari yoki ovozning yuqori registrlarida yuzaga keladigan hissiy ohanglarni qoʻllab-quvvatlash uchun joʻrnavos doira cholgʻusi orqali ritmik va dinamik aksentlarni yaratishi mumkin.

“Maqom ijrochiligida qochirim va nolish qilish vositalaridan foydalana olish masalasiga ham alohida ahamiyat bermoq lozim. Bu siz maqom yoʻllarining badiiy-estetik taʼsir kuchi sezilmay qoladi” Shuningdek, joʻrnavoslikning maqsadi – solistni biriktirilgan ritmik va melodik naqshlar bilan uygʻunlashtirish, ijroni boyitish va ansamblidagi boshqa cholgʻular bilan muvozanatni saqlashdir. Qochirim va nolish vositalari orqali ritmik zaxira va ovozning badiiy rangini yaratish joʻrnavosning professional madaniyatining ajralmas qismidir.

Maqom ijrochiligida qochirim va nolish qilish vositalarini faqat solistning ijrosi bilan uygʻun holda ishlatadigan joʻrnavos, ansambl ijrosining nafisligi va maqom yoʻllarining chuqur estetik

ta'sirini maksimal darajada oshiradi. Shu bilan birga, u solistning ijodiy qarorlarini qo'llab-quvvatlab, sahnadagi ijrochilik uyg'unligini ta'minlaydi.

Tadqiqotda quyidagi yondashuvlar va metodlar qo'llanildi:

Amaliy kuzatuv metodi – jo'rnavozning ansambl bilan ishlash jarayonida, vokal ansambl yoki musiqa sinfida ijro etayotgan paytdagi harakatlari, ansambl ijrosiga moslashishi va ustozning talabalarga vazifasini to'liq tushinishi kuzatildi. Bu metod orqali jo'rnavozning ijro va pedagogik funksiyalarini real sharoitda aniqlash imkoniyati yaratildi.

Ustozlar bilan suhbatlar – tajribali jo'rnavozlar, xususan doirachi ustozlar va shogirdlari bilan o'tkazilgan suhbatlar, jo'rnavozlik san'atining nazariy va amaliy jihatlarini, ijrochilik va pedagogik yondashuvlari haqida batafsil ma'lumot berdi.

Tahliliy metod – jo'rnavozning ijrochilik va pedagogik faoliyati tahlil qilinib, uning vokal ko'nikmalari, akkompaniment qilish mahorati, ijodiy yondashuvi va boshqa ijrochilarning badiiy irodasiga bo'ysuna olish qobiliyati o'rganildi.

Psixologik tayyorgarlikni baholash – jo'rnavozlikning psixologik jihatlarini, xususan, bir vaqtning o'zida bir nechta musiqiy obyektlarga e'tibor qaratish, ijodiy qarorlar qabul qilish va ijro jarayonida stressni boshqarish qobiliyati tadqiq etildi.

Jo'rnavozlikka tayyorlash jarayoni bo'lajak ijrochilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirildi:

Ijrochilik eshituvi – musiqiy ansambl va alohida ijrochilarning ijrosidagi tonal, ritmik va dinamik o'zgarishlarni aniqlash va moslashish.

Jo'rlik ijrosiga ijodiy yondashuv – ijro jarayonida ijodiy qarorlar qabul qilish va ansambl ijrosini boyitish.

Jo'r bo'lish mahorati – vokal yoki cholg'u ijrochilarga qo'llab-quvvatlashni mukammal amalga oshirish.

Ruhan moslashuv – boshqa ijrochilarning badiiy irodasiga bo'ysuna olish va ansamblidagi hamkorlikni ta'minlash.

Ushbu metodlar yordamida tadqiqot, jo'rnavozning professional malakasi, ijrochilik va pedagogik yondashuvlari, shuningdek, amaliy darslarda shogirdlar bilan ishlash jarayonidagi samaradorligini tizimli ravishda o'rganishga imkon yaratdi.

Doira cholg'usida jo'rnavozlikning asosiy sirlari quyidagilardan iborat:

Usul ruhini his qilish – maqom usullari tarixiy va falsafiy ma'nolar bilan boy bo'lib, jo'rnavoz ularni sezishi kerak.

Solist bilan bitta nafasda ijro etish – sahnadagi uyg'unlik muvaffaqiyatning asosidir.

Dinamika va zarba usullarini nozik qo'llash – doirada *naqqora*, *chak-chak*, *chapak* va *qoqish* kabi ijro uslublari ishlatiladi.


Ansambl madaniyatini rivojlantirish – jo'rnavoz yakkaxon emas, balki jamoa a'zosi sifatida ishlaydi.

Doira cholg'usining registri, tembri va zarbasi solistning ovozi bilan uyg'un bo'lishi shart. Masalan, sopran ovozi engillik va shaffoflikni talab qilsa, bas ovozi kuchlilik va zichlikni talab qiladi.

Bunda ashulalar so'zlari o'rniga doira usuli qo'llaniladi va u "bum – baka – bak – bum – bak" shaklida ijro etiladi. Shu tarzda, xonanda ritmik naqshni ovoz orqali amalga oshiradi, bu esa nafaqat musiqiy intonatsiyani, balki ijrochilik eshituvini, ritmni his qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Natijalar. Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, doira cholg'usi va uning ritmik naqshlari faqat instrumental hamroh sifatida emas, balki vokal ijroda ham jo'rnavozlik va ritmik uyg'unlikni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa, maqom ijrochiligida doira cholg'usining amaliy

qo'llanilishi, solistning ijodiy va texnik mahoratini boyitadi, ansamblning ritmik integratsiyasini ta'minlaydi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jo'rnavozning ijrochilik eshituvlari uning professional malakasining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Bu eshituv bir vaqtning o'zida **ko'rish, eshitish va vizual e'tiborini bir nechta obyektga taqsimlay olish, faktura va registr o'zgarishlariga tez javob berish**, shuningdek, **solist bilan dinamik rejani muvofiqlashtirish** qobiliyati orqali namoyon bo'ladi. Shu yo'l bilan jo'rnavoz ansambl ijrochiligida muhim vositachi vazifasini bajaradi, ijrochilar va auditoriya o'rtasida musiqiy muvozanatni saqlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, jo'rnavozning ijodiy yondashuvi va ansambl bilan ishlash qobiliyati bir-birini to'ldiradi. U o'z ijodiy qarorlarini ansambl ijrochiligi tamoyillariga muvofiq amalga oshiradi, bu esa ijroning umumiy badiiy ifodasini yaxshilaydi. Masalan:

Jo'rnavoz **so'zandaga** yoki cholg'uga jo'r bo'lganda, asarning texnik va ritmik xususiyatlarini hisobga olgan holda akkompanimentni moslashtiradi.

Ansambl jamoasi bilan ishlashda u xori ijrosini boshqarish va dinamik o'zgarishlarga moslashish orqali musiqiy uyg'unlikni ta'minlaydi.

O'zining kuylashiga yoki **raq jamoasiga jo'r bo'lish** jarayonida esa jo'rnavoz ritmik, melodik va ekspressiv jihatdan ijrochilarni qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, jo'rnavozlik san'ati nafaqat texnik mahoratni, balki pedagogik va ijodiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Jo'rnavoz shogirdlarga ijroni tushuntirish, ularni ansamblida uyg'un ishlashga yo'naltirish, shuningdek musiqiy didni shakllantirish orqali o'quv jarayoniga bevosita ta'sir qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jo'rnavozlik san'ati ijrochilik va pedagogik ko'nikmalarni uyg'unlashtirish orqali shakllanadi. Jo'rnavozning solist-xonandalar yoki vokal jamoalar bilan ishlashiga xoslik, avvalo, xonandalar ovoz chiqarish uslubi va adabiy matn bilan bog'liqligi orqali aniqlanadi. Shu sababli, jo'rnavoz oldida quyidagi talablar turadi:

Vokal san'ati bo'yicha bilimga ega bo'lish: ijrochilik intonatsiyasining aniqligi, diktatsion ifodadorlik, nafasni to'g'ri taqsimlash, frazalash va tsazura hamda artikulyatsiyaning ijro jarayonidagi ahamiyatini tushunish.

Xonandalar ovozini tahlil qilish: tesseratura imkoniyatlari, diapazon harakati, tembr xususiyatlari va registr rangining o'ziga xosligini hisobga olish. Shu bilan birga, ovoz registri fortepiano partiyasining kuchiga ta'sirini tushunish: masalan, sopran akkompanimenti engillik va shaffoflikni talab qilsa, bas ovozi kuchlilik va tovush zichligini talab qiladi.

Bundan tashqari, Yevropa akademik xonandaligi mashqlarida uchramaydigan, faqat o'zbek mumtoz xonandalik yo'nalishiga xos bir mashq mavjud. Ushbu mashq – ritmik usulni, ya'ni doira usulini ovozda qo'llash bilan ajralib turadi. Jo'rnavozning ijrochilik mahorati maxsus bilim va ko'nikmalarga asoslanib shakllanadi va bu uning **professional madaniyatining muhim tarkibiy qismi** hisoblanadi. Tadqiqot natijalari kelajakdagi jo'rnavozlarni tayyorlash jarayonida quyidagi yo'nalishlarni ustuvor etish zarurligini ko'rsatdi:

Ijrochilik eshituvini rivojlantirish – musiqiy ansambl va solistlarning ijrosidagi tonal va ritmik o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini shakllantirish.

Jo'r partiyasini ijro etishga ijodiy munosabatni tarbiyalash – ijro jarayonida ijodiy qarorlar qabul qilish va ansambl ijrosini boyitish.

Akkompanement qilish mahoratini rivojlantirish – vokal yoki cholgʻu ijrochilarga mukammal qoʻllab-quvvatlashni taʼminlash.

Psixologik tayyorgarlikni shakllantirish – solist yoki dirijorning badiiy irodasiga boʻysunish va ansambldagi uygʻunlikni saqlash qobiliyatini rivojlantirish.

Shu yoʻl bilan, joʻrnavezlik sanʼati nafaqat ijrochilik koʻnikmalarini, balki pedagogik, ijodiy va psixologik malakalarni ham rivojlantiruvchi kompleks jarayon sifatida namoyon boʻladi. Tadqiqot shuni isbotladi-ki, ustoz-shogird anʼanasi va tizimli tayyorgarlik kelajak joʻrnavezlarning professional darajasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Maqom ijrochiligida doira cholgʻusining joʻrnavezlikdagi oʻrni nafaqat ritmik tayanch, balki badiiy ifodaning muhim vositasidir. Joʻrnavezlik sanʼati – koʻp qirralilik, pedagogik yondashuv, ijodiy munosabat va ansambl madaniyati – maqom ijrosining ajralmas qismi boʻlib, doira cholgʻusi orqali yanada yorqin namoyon boʻladi. Joʻrnavezning mahorati, solist va ansambl bilan uygʻunligi maqomning nozik qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyot roʻyxati:

1. В.Успенский, Шесть музыкальных поем. Москва-Бухара, 1924-год
2. И.К. Иванова искусство концертмейстерского мастерства wschodnioeuropejskie czasopismo naukowe (east european scientific journal) | sztuka # 7, 2016
3. Oʻzbek xalq muzikasi VI jild, yozib oluvchi M.Yusupov. Toshkent, 1958-yil.
4. I.Rajabov, Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963-yil.
5. Shashmaqom I-VI jild, yozib oluvchi Yu.Rajabiy “Toshkent, 1966-1975-yillar.
6. Yu.Rajabiy, Musiqa merosimizga bir nazar. Toshkent, 1978-yil.
7. A.Fitrat, Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent, 1993-yil.
8. I.Rajabov, Maqom asoslari. Toshkent, 1994-yil.
9. R.Yunusov. Oʻzbek xalq musiqasi ijodiyoti (II-qism). Toshkent, 2000-yil.